


## Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil yanvar oyida)

2019 yilning yanvar oyida viloyatda 806 ta korxonalar va tashkilotlar tashkil etildi (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 491 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1981 ta (9,9%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21977 tani tashkil etgan.



Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1661	1585	30
 Sanoat	4622	4499	172
 Qurilish	1712	1585	68
 Savdo	5772	5347	396
 Tashish va saqlash	851	818	33
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	942	883	39
 Axborot va aloqa	357	336	10
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	526	514	5
 Boshqa turlari	6627	6410	53



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**

2019 yilning 1 fevral holatiga 23070 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 25,0% savdo, 20,0% sanoat, 7,4% qurilish, 7,2% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,1% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7% tashish va saqlash, 1,6% axborot va aloqa, 2,3% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 28,7% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (8841 ta), Chust (1877 ta), Namangan (1610 ta) va To'raqo'rg'on (1435 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (893 ta), Norin (957 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1115 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda





## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 21977 tani tashkil etib (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz), o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1981 ta (9,9%) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,3% savdo, 20,5% sanoat, 7,2% qurilish, 7,2% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,0% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7% tashish va saqlash, 1,6% axborot va aloqa, 2,3% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,2% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %

( fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari )



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (8353 ta), Chust (1778 ta), Namangan (1536 ta), Uychi (1361 ta) va To'raqo'rg'on (1344 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (886 ta), Norin (927 ta) hamda Yangiyo'rg'on (1046 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**

01.02.2017 y.

• 18941 ta

01.02.2018 y.

• 19996 ta

01.02.2019 y.


• 21977 ta



## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019 yil yanvar oyida 806 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,5 martaga ko'pdir. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (250 ta), Kosonsoy (81 ta), Chust (79 ta), Pop (66 ta) va Norin (57 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, To'raqo'rg'on (30 ta), Chortoq (31 ta) hamda Yangiqo'rg'on (32 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdo (396 ta), sanoat (172 ta), qurilish (68 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (39 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (5 ta), axborot va aloqa (10 ta), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (30 ta) hamda tashish va saqlash (33 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>314</b>	<b>100,0</b>	<b>315</b>	<b>100,0</b>	<b>806</b>	<b>100,0</b>
Savdo	96	30,6	66	21,0	396	49,1
Sanoat	93	29,6	93	29,5	172	21,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	47	15,0	27	8,6	30	3,7
Qurilish	16	5,1	17	5,4	68	8,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	1,9	9	2,9	39	4,8
Tashish va saqlash	18	5,7	15	4,7	33	4,1
Axborot va aloqa	1	0,3	7	2,2	10	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	2,2	5	1,6	5	0,6
Boshqa turlari	30	9,6	76	24,1	53	6,8

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**








## TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 fevral holatiga 17678 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5863 ta, oilaviy korxonalar – 341 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11048 ta va boshqalar 426 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 143 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 37,5% ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi, Turkiya va Qozog'iston Respublikalari hissalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 99 tasi qo'shma korxonalar, 44 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar(54 ta yoki jami ulushi 37,7%), Kosonsoy(13 ta yoki 9,1%), Uychi(12 ta yoki 8,4%) hamda Chortoq va To'raqo'rg'on(11 tadan yoki 7,7%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mingbuloq(2 ta yoki 1,4%), Namangan, Uchqo'rg'on va Yagiqo'rg'on(5 tadan yoki 3,5%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 94 tani (65,7%), savdoda 14 tani (9,8%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 12 tani (8,4%) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 10 tani (7,0%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 tani (0,7%), axborot va aloqada 2 tani (1,4%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tani (2,1%) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 tani (4,2%) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat

turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.**

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 6 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi va Janubiy Koreya Respublikalari rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 tadan, Chexiya va Xitoy Xalq Respublikalari - 2 tadan yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (2 ta), sanoat, qurilish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda boshqalar (1 tadan) hissasiga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi, birlikda

	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	X	X	1	16,7
Savdo	1	100,0	X	X
Qurilish	X	X	1	16,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	X	X	2	33,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	X	X	X	X
Axborot va aloqa	X	X	X	X
Tashish va saqlash	X	X	X	X
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	X	X	1	16,7
Boshqa turlari	X	X	1	16,6



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

2019 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 17678 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevral holatiga qaraganda 10,8% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7128 tasi (40,3%) Namangan shahri, 1442 tasi (8,2%) Chust, 1295 tasi (7,3%) Namangan hamda 1092 tasi (6,2 %) Uych tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17678 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5321 tasi (30,1%) savdo, 4469 tasi (25,3%) sanoat, 1581 tasi (8,9%) qurilish, 1555 tasi (8,8%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 879 tasi (5,0%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 808 tasi (4,6%) tashish va saqlash, 416 tasi (2,3%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 316 tasi (1,8%) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2333 tasi (13,2%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar oyida 787 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (244 ta), Kosoysoy (80 ta), Chust (77 ta), Pop (65 ta) va Norin (56 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam To'raqo'rg'on (30 ta), Chortoq (31 ta), Yangiqo'rg'on hamda Mingbuloq (32 tadan) tumanlarida tashkil etilgan.



### Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (396 ta), sanoatda (172 ta), qurilishda (68 ta), yashash va ovqatlanishda (39 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (28 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta), axborot va aloqada (10 ta) tashkil etilgan.



#### **Oilaviy korxonalar soni**


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 349 tani tashkil etib, ulardan 341 tasi yoki 97,7% faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 31,0% ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 49,2% yoki 168 tasi sanoat, 15,8% yoki 54 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,9% yoki 44 tasi savdo, 9,1% yoki 31 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8% yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2% yoki 4 tasi axborot va aloqa, 0,6 yoki 2 tasi qurilish hamda 9,4% yoki 32 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




2019 yil 1 fevral holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

#### Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar.

2019 yilning yanvar oyida jami 94 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan - 191 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda. Misol tariqasida 2017 yilda 81 ta, 2018 yilda 285 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2019 yilning yanvarida ushbu ko'rsatkich 94 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 191 taga tugatish kamaygan.*

## Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Agarda tugatilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 36 tasi (38,3%) savdo, 13 tasi (13,9%) sanoat, 3 tasi (3,2%) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7 tasi (7,4%) qurilish, 5 tasi (5,3%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (2,1%) tashish va saqlashda, 1 tasi (1,1%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27 tasi (28,7%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

## Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
<b>Jami</b>	<b>285</b>	<b>100,0</b>	<b>94</b>	<b>100,0</b>	<b>-191</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	17	6,0	3	3,2	-14
sanoat	37	13,0	13	13,9	-24
qurilish	34	11,9	7	7,4	-27
savdo	121	42,5	36	38,3	-85
tashish va saqlash	1	0,3	2	2,1	1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10	3,5	5	5,3	-5
axborot va aloqa	3	1,1			-3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	5,6	1	1,1	-15
boshqa turlari	46	16,1	27	28,7	-19

## Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar oyida 74 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 36 tasi (48,6%) savdo, 13 tasi (17,6%) sanoat, 3 tasi (4,1%) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7 tasi (9,4%) qurilishda, 5 tasi (6,7%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2 tasi (2,7%) tashish va saqlashda, 1 ta (1,4%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 7 tasi (9,5%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Namangan shaxrida 153 ta, Chust tumanida 25 ta, Chortoq tumanida 8 ta hamda Norin tumanida 6 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.